BOG‘LANAGAN QO‘SHMA GAPLAR TALQINIDA G‘ANIJON ABDURAHMONOVNING ILMIY KONSEPSIYASI

Muhammadov Abrorxo‘ja
Fardu tayanch doktaranti

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek sintaksis nazariyasi rivojida muhim o‘rin tutgan tilshunos olim G‘anijon Abdurahmonovning bog‘langan qo‘shma gaplarga oid ilmiy qarashlari tahliliy yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqotda bog‘langan qo‘shma gapalrning gramatik mustaqilligi, semantik yaxlitligi va kommunikativ vazifasi olim konsepsiyasi doirasida qayta talqin qilinadi. Shuningdek, Olim qarashlarining zamonaviy funksional va matn sintaksisi bilan uyg‘un jihatlari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *bog‘langan qo‘shma gap, teng sintaktik munosabat, bog‘lovchi vositalar, intonatsiya, sintaktik talqin.*

KIRISH

O‘zbek tilining sintaktik tizimi fikrning mantiqiy va mazmuniy jihatdan mukammal ifodalanishini ta’minlovchi murakkab tuzilmalardan iborat. Ushbu tizimda qo‘shma gaplar, xususan, bog‘langan qo‘shma gaplar nutqning dinamik va mantiqiy rivojini ta’minlovchi asosiy birliklardan biri hisoblanadi. Bog‘langan qo‘shma gaplarning ilmiy talqini masalasi esa o‘zbek tilshunosligida uzoq yillar davomida bahs va izlanishlar markazida bo‘lib kelgan. Mazkur yo‘nalishda G‘anijon Abdurahmonov tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar sintaksisga yangicha yondashuvni shakllantirdi. Olim qo‘shma gaplarni faqat grammatik konstruksiya sifatida emas, balki nutqiy ehtiyoj va fikr harakati mahsuli sifatida izohladi. Shu jihatdan uning bog‘langan qo‘shma gaplar haqidagi qarashlari bugungi tilshunoslik uchun ham dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Bog‘langan qo‘shma gaplarning nazariy mohiyati

G‘anijon Abdurahmonovning talqinida bog‘langan qo‘shma gaplar tarkibiy qismlarining teng sintaktik huquqqa egaligi bilan harakterlanadi. Olimning ta’kidlashicha, bunday gaplarda sodda gaplar o‘zaro bo‘ysunish munosabatiga kirmaydi, balki umumiy mazmuniy yo‘nalish asosida birlashadi. Qo‘shma gapning boshqa turlariga o‘xshab, bog‘langan qo‘shma gap ham birdan ortiq qismlardan tarkib topadi. Bog‘langan qo‘shma gapni tashkil etgan qismlar o‘zaro turli mazmun munosabatida bo‘ladi. Turli mazmun munosabatlarda bo‘lgan qismlarni biriktirish uchun, ular orasidagi ma’lum mazmun munosabatlarni belgilash uchun turli grammatik, leksik va intonatsion vositalar qo‘llanadi. Qo‘shma gap qismlarida ma’lum semantik munosabatlarni belgilashda ayrim leksik elementlarning ma’nosi va vazifasi ham katta rol o‘ynaydi. Nihoyat bog‘langan qo‘shma gapni tuzishda, ular orasidagi semantik munosabatlarni belgilashda intonatsiya, shuningdek, qo‘shma gap qismlarining o‘rinlashishi ham katta xizmat qiladi[1]. Muhim jihati shundaki, G‘anijon Abdurahmonov bog‘langanlikni faqat tashqi grammatik ko‘rsatkichlar bilan cheklamaydi. Uning

[1] Абдураҳмонов Ғ., Қўшма гап синтаксиси. Тошкент: Фан, 1964.

konsepsiyasida bog‘langan qo‘shma gaplar mazmuniy uyg‘unlik, intonatsion yaxlitlik va kommunikativ maqsad birligi asosida shakllanadi. Bu yondashuv olimning sintaksisni nutq bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilganini ko‘rsatadi. Bog‘langan qo‘shma gapni tuzishda teng bog‘lovchilar xizmat qiladi. Har bir bog‘lovchi, asosan, ma’lum bir guruh mazmun munosabatiga kirishgan bog‘langan qo‘shma gaplarda qo‘llanadi[2]. Ammo ma’lum guruh bog‘lovchilarni faqat bir mazmun gruppasi bilangina bog‘lash to‘g‘ri bo‘lmas edi: har bir bog‘lovchi, asosan ma’lum bir mazmun munosabatini ifodalagan bog‘langan qo‘shma gaplarda ishlatilishi bilan birga, bog‘langan qo‘shma gapning boshqa mazmun gruppalarida ham qo‘llanadi, ammo bunda ham bog‘lovchi asosiy mazmun ifodalash funksiyasini saqlab, boshqa o‘rinda qo‘shimcha mazmun ottenkalarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Shunday qilib, har bir bog‘lovchi faqat bir xil mazmun munosabati bilan bog‘lab qo‘yish, shuningdek, bog‘langan qo‘shma gapda turli-tuman mazmun munosabatlarining ifodalanishini faqat bog‘lovchilargagina bog‘lab, qo‘shma gap tarkibidagi ayrim leksik elementlar va gap bo‘lakalrining mazmuni hamda ularning mazmun munosabatlari, intonatsiya va boshqa vositalarni hisobga olmaslik to‘g‘ri bo‘lmas edi[3]. G‘anijon Abdurahmonov ilmiy qarashlarida bog‘lovchilar sodda gaplarni mexanik bog‘lovchi birlik emas, balki fikr yo‘nalishini belgilovchi semantik ko‘rsatgich sifatida baholanadi. Olim va, lekin, ammo, yoki kabi bog‘lovchilarning har biri muayyan mantiqiy munosabatni yuzaga chiqarishini alohida ta’kidlaydi. Masalan, zidlov bog‘lovchilari orqali fikr ichidagi qarama-qarshilik ochiladi, ayruv bog‘lovchilari esa nutqda tanlov vaziyatini hosil qiladi. Natijada bog‘langan qo‘shma gaplar sodda gaplar yeg‘indisi emas, balki mazmuniy jihatdan murakkab sintaktik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Inkor bog‘lovchisi na-na qismlarida ro‘yobga chiqmaydigan voqea, hodisa, xususiyatlar ifodalangan qo‘shma gaplarni tuzish uchun qo‘llanadi. Bu bog‘lovchi qo‘shma gapning umumiy mazmuniga inkor ma’nosini beradi, shu jihatdan u yuklamaga ham yaqinlashadi. Masalan, Na ko‘cha bor, na mustahkam uy-joy, na dala shiyponi bor (Oybek). Inkor bog‘lovchisi yordami bilan tuzilgan qo‘shma gapning qismlari bir xil bo‘ladi, shuning uchun ham ikkinchi qismning tarkibida kesim qo‘llanmaydi – bu bilan ifodalangan bo‘lakka diqqat jalb etiladi: Unda na maqsad bor, na aql (A. Muxtor)[4]. -U, -yu, -da yuklamalari ham bog‘langan qo‘shma gapni tuzishda xizmat qiladi. Bu yuklamalar quyidagi semantik munosabatga kirishgan qismlarni birlashtirib, bog‘langan qo‘shma gapni tuzadi:

1) ma’lum bir paytda yoki ketma-ket ro‘y beradigan harakat, holatni ifodalovchi qo‘shma gaplarda:

To‘g‘on boshidagi tepalikdan birdan do‘m-do‘m etgan tovush eshitildi-yu, to‘rt karnayning og‘zi birdan osmonga ko‘tarildi (A. Qahhor).

2) qo‘shma gap tarkibidagi qismlardan anglashilgan mazmun bir-biriga qiyoslanadi (yoki qarama-qarshi qo‘yiladi): Siz uy ajratamiz dedingiz-u, men yo‘q dedimmi? (A. Qahhor).

[2] А. Б. Шапиро шундай изоҳлайди: ,, . . .союз . . .лишь обладает одним значением, отдельные частние оттенки которого могут обнаруживаться лишь в различных контекстовых условиях

[3] Абдураҳмонов Ғ., Қўшма гап синтаксиси. Тошкент: Фан, 1964.

[4] Абдураҳмонов Ғ., Қўшма гап синтаксиси. Тошкент: Фан, 1964.

3) Qo‘shma gapning birinchi qismi sababni, ikkinchi qismi undan kelib chiqadigan natijani ifodalaydi: Botirjon bu gapni eshitdi-da, qanday javob berganini o‘zi ham bilmay qoldi[5]. G‘anijon Abdurahmonov bog‘langan qo‘shma gaplarni mazmuniy munosabatiga ko‘ra quyidagi asosiy turlarga ajratadi:

1. Qo‘shilish munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplar – fikrning ketma-ket yoki parallel tarzda rivojlanishini ifodalaydi.
2. Zidlov munosabatli bog‘lanagan qo‘shma gaplar – qarama-qarshi holat yoki baholashni yuzaga chiqaradi.
3. Ayruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gap – muqobil fikr yoki tanlov holatini ifodalaydi. Mazkur tasnif grammatik shakldan ko‘ra semantik ustuvorlikka asoslangan bo‘lib, olimning funksional yondashuvini yaqqol namoyon etadi.

G‘anijon Abdurahmonov intonatsiyani bog‘langan qo‘shma gaplarning ajralmas belgisi sifatida e’tirof etadi. Ayniqsa, bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gaplarda intonatsiya sodda gaplar o‘rtasidagi teng munosabatni ta’minlovchi asosiy vosita vazifasini bajaradi. Bu holat sintaksis va fonetika o‘rtasidagi uzviy aloqani ko‘rsatadi. Ayrim hollarda qo‘shma gapni tashkil etgan qismlarning birinchisining kesimi ravishdosh formasida bo‘ladi: Onda-sonda aravalar gijirlab, po‘sht-po‘sht degan tovushlar , qichqiriqlar eshitildi (Oybek).

Bu tipdagi gaplar shaklan ergash gapga o‘xshasa ham, mazmunan ikkinchi gapga tobe bo‘lmaydi, ammo umumiy bir fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu jihatdan ular bog‘langan qo‘shma gap tipiga kiradi[6].

Bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gapni tashkil etgan bu turdagi gaplarning kesimi fe’l kesim yoki ot kesim shaklida bo‘lishi mumkin:

a) Shu yerda olomon ikkiga bo‘linib, necha hissa ko‘payishib kechgacha ur-yiqit bo‘libdi (A. Qahhor).

b) Oltinsoy darasida yerlar yap-yalang‘och toshdan iborat bo‘lib, unda hayotdan asar ham yo‘q edi, hatto bahor oylarida ham bu yerlarda maysa ko‘karmasdi (Oybek).

G‘anijon Abdurahmonovning qo‘shma gaplarga oid qarashlari Sh. Rahmatullavev va A.G‘ulomovlar tadqiqotlari bilan umumiy jihatlarga ega bo‘lsa-da, uning konsepsiyasi mazmuniy-funksional yo‘nalishi bilan ajralib turadi. Aynan shu yondashuv zamonaviy matn sintaksisi, diskurs tahlili va pragmatik izlanishlar uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, G‘anijon Abdurahmonov tomonidan ishlab chiqilgan bog‘langan qo‘shma gaplar konsepsiyasi o‘zbek sintaksisining rivojida muhim ilmiy bosqichni tashkil etadi. Olimning mazkur yo‘nalishdagi izlanishlari qo‘shma gaplarni shakliy emas, balki mazmuniy va komunikativ birlik sifatida talqin qilish imkonini berdi. Bu qarashlar bugungi tilshunoslik tadqiqotlari uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov G‘. Qo‘shma gap sintaksisi. – Toshkent : Fan, 1964.
2. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1976.

[5] Абдураҳмонов Ғ., Қўшма гап синтаксиси. Тошкент: Фан, 1964.
[6] Абдураҳмонов Ғ., Қўшма гап синтаксиси. Тошкент: Фан, 1964.

3. Abdurahmonov G‘. Hozirgi o‘zbek adabiy tili sintaksisi masalalari. – Toshkent, 1980.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I-II jildlar. – Toshkent: Fan, 2006.
5. G‘ulomov A. O‘zbek tili grammatikasi. Sintaksis. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975.
6. Mahmudov N. Til va nutq masalari. – Toshkent: Fan, 2010.
7. Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2001.
8. Sayfullayeva R., Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent: Tafakkur, 2012.
9. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida qo‘shma gaplar. – Toshkent; Fan, 1988.
10. Yo‘ldoshev M. Matn va uning lingvistik tahlili. – Toshkent: Fan, 2007.
11. Safarov Sh. Pragmatik lingvistika. – Toshkent: Fan, 2008.
12. Xolmanova Z. O‘zbek tilida sintaktik munosabatlar. – Toshkent, 2015.
13. O‘zbek tili gramatikasi. Akademik nashr. II jild. – Toshkent: Fan, 1976.